



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 7-fevral

56-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 5-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 31-yanvardagi 54-son qarori ijrosi haqida”gi 55-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2023-yillarda axborot- kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 31-yanvardagi 54-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 5-fevraldagi 55-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 5-fevraldagi 55-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-yanvardagi 54-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 22-avgustdagi PQ–357-son qaroriga asosan 2023-yil 1-yanvardan boshlab davlat organlari va tashkilotlarining (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari) rasmiy veb-saytlari va portallarini “Yagona darcha” tamoyili asosida o‘z ichiga oluvchi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali yagona platformasi (keyingi o‘rinlarda — Yagona platforma) ishga tushirilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilar:

Davlat organlarining rasmiy veb-saytlari faoliyatini “Yagona darcha” tamoyili asosida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portalida yo‘lga qo‘yish, yuritish, ulardagi axborot dolzarbligi va xavfsizligini ta‘minlash hamda Hukumat portalida joylashtiriladigan axborotni davlat organlari tomonidan taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Yagona platformaga davlat organlarining rasmiy veb-saytlarini o‘tkazish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha:

a) “UZINFOCOM” davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integrator” mas’uliyati cheklangan jamiyati Yagona platforma operatori hisoblanishi;

b) Davlat organlarining Yagona platformaga o‘tkaziladigan veb-saytlari faoliyatini texnik qo‘llab-quvvatlash hamda ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha sarf- xarajatlar belgilangan tartibda tasdiqlangan tariflarga muvofiq davlat organlari bilan Yagona platforma operatori o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida mazkur davlat organlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari, Davlat byudjeti mablag‘lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi; bunda davlat organlarining

veb-saytlari faoliyatini texnik qo'llab-quvvatlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar Yagona platforma operatori tomonidan Yagona platformani takomillashtirish, texnik qo'llab-quvvatlash va axborot xavfsizligini ta'minlash uchun yo'naltirishi;

d) 2025-yil 1-martdan boshlab davlat organlarining rasmiy veb- saytlari faqatgina Yagona platformada yuritilishi, bunda yangi tashkil etilgan davlat organlari o'zlarining rasmiy veb-saytlari faoliyatini tashkil etilgan sanadan boshlab bir oy muddatda Yagona platformada yo'lga qo'yishi;

e) davlat organlari rahbarlari davlat organlarining rasmiy veb-saytlari Yagona platformada yuritilishi uchun shaxsan mas'ul hisoblanishi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritilganligi e'tiborga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Abdusalomov):

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-yanvardagi 54-sonli qarori 2-ilovasi bilan belgilangan muddatlarda rasmiy veb-saytlarining Yagona platformaga o'tkazilishini ta'minlasin;

rasmiy veb-sayt Yagona platformaga o'tkazilganidan so'ng bir hafta muddatda eski rasmiy veb-saytlar domen manzillarini hamda veb-sayt va undagi ma'lumotlarni saqlab qolgan holda, Yagona platformadagi rasmiy veb-saytlar manziliga yo'naltirsin yoki ularning faoliyatini to'xtatsin;

Yagona platforma operatori bilan Yagona platformaga o'tkazilgan veb-saytlar faoliyatini texnik qo'llab-quvvatlash hamda ularga xizmat ko'rsatishni, shuningdek, tomonlarning huquq va majburiyatlarini o'z ichiga oluvchi shartnomani tuzish choralarini ko'rsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov